



21.01.2022 даги

"O'ZR TURIZM VA SPORT VQ TURISTLARGA XKM" DUK ва O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport  
vazirligi ўртасида 74465375,00 сўм умумий суммага тузилган 04/1 - сонли шартномага

**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ\***

Боб 245  
Шахсий ғазна ҳисобварак 304110860262667047904245001

сўмда

| 2022 й. ойлар номи.    | Харажатлар тури**<br>(бюджет таснифининг тегишли коди) |  |  | Жами                 |
|------------------------|--|--|--|----------------------|
|                        | 4299990  |  |  |                      |
| Январь                 | 74 465 375,00  |  |  | 74 465 375,00        |
| Февраль                |  |  |  |                      |
| Март                   |  |  |  |                      |
| Апрель                 |  |  |  |                      |
| Май                    |  |  |  |                      |
| Июнь                   |  |  |  |                      |
| Июль                   |  |  |  |                      |
| Август                 |  |  |  |                      |
| Сентябрь               |  |  |  |                      |
| Октябрь                |  |  |  |                      |
| Ноябрь                 |  |  |  |                      |
| Декабрь                |  |  |  |                      |
| <b>Жами йил бўйича</b> | <b>74 465 375,00</b>                                   |  |  | <b>74 465 375,00</b> |

Жами 74465375,00 сўм

Етмиш тўрт миллион тўрт юз олтмиш беш минг уч юз етмиш беш  
сўм 00 тийин  
сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 22339612,50 сўм ёки 30,00%\*\*\* шартноманинг умумий суммасидан  
% \*\*\*20 ойда тўланиши лозим.

(\* ) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(\*\*) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(\*\*\*) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойнага \_\_\_\_\_ % жорий ойнинг \_\_\_\_\_ санасигача хар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиши, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган хар ой дониний равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари



М.Ў.

(имзо)

Азамов У.А.

Ф.И.Ш.

Буюртмачи бош бухгалтери

(имзо)

Махмудов Ш. Б.

Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг  
ходими қабул қилди

Буюртмачи ходими  
қабул қилди

(имзо)

(имзо)

« \_\_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_\_ й.

« \_\_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_\_ й.

**SHARTNOMA № 04/1**  
**Haq evaziga xizmat ko'rsatish to'g'risida**

**Toshkent sh.**

**“21”-yanvar 2022 yil**

“**Turistlarga xizmat ko'rsatish markazi**” DUK nomidan Ustav asosida ish olib boruvchi direktori Nurov D.T. (keyingi o'rinlarda “Ijrochi” deb yuritiladi) bir tomondan, va **Turizm va sport vazirligi** nomidan ishonchnomaga asosida ish olib boruvchi vazirning birinchi o'rinbosari A.U.Azamov (keyingi o'rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi), ikkinchi tomondan, keyinchalik matnda birgalikda va/yoki alohida “**TOMONLAR**” deb yuritiladi, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

**1. SHARTNOMA MAZMUNI**

1.1. Ijrochi Buyurtmachining ko'rsatma va topshiriqlariga binoan Buyurtmachining mehmonlari (yo'lovchilari) uchun transport xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ishlarni (keyingi o'rinlarda "Ishlar" deb yuritiladi) bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Buyurtmachi esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Ishlar Buyurtmaga asosan va Buyurtmaga muvofiq ravishda bajariladi.

1.3. Ijrochi tomonidan bajariladigan ishlarning preyskuranti Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanuvchi 1-ilovada belgilanadi.

1.4. Buyurtmachi 2 (ikki) kundan kechiktirmay Ijrochiga ishlarni bajarish uchun Buyurtmani yuboradi, Ijrochi esa, o'z navbatida, 1 (bir) kun ichida bajariladigan ishlarning bahosi va shartlarini o'z ichiga olgan javobni taqdim etadi.

**2. ISHLAR NARXI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI**

2.1. Shartnoma imzolanib Moliya vazirligi g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng Buyurtmachi 3 (uch) kun ichida bajariladigan ishlar uchun Ijrochining hisob raqamiga mazkur Shartnomaning 2.3 bandida ko'rsatilgan summaning 30 foizi miqdorida oldindan to'lovni o'tkazib beradi. Summaning qolgan 70 foiz qismi taqdim etilgan hisob-fakturaga asosan, hisob-faktura taqdim etilgan sanadan boshlab 3 (uch) kun ichida to'lanadi.

2.2. Mazkur Shartnoma yuzasidan to'lovlar Buyurtmachi tomonidan Ijrochining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.3. Shartnomaning umumiy bahosi mazkur shartnomaga keltirilgan 1-Illovaga muvofiq QQS bilan **74 465 375** (yetmish to'rt million to'rt yuz oltmish besh ming uch yuz yetmish besh ) so'mni tashkil etadi.

**3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

3.1. Ijrochi majburiyatlari:

3.1.1. Shartnomaning 1.2. bandida nazarda tutilgan ishlarni vijdonan va o'z vaqtida bajarish;

3.1.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ishlarni bajarish uchun ruxsat beruvchi hujjat(lar)ning nusxasini taqdim etish;

3.1.3. Shartnoma mazmunining hamda Buyurtmachidan Ijrochiga ma'lum bo'lgan boshqa har qanday ma'lumotlarning qat'iy maxfiyligiga rioya qilish.

3.1.4. Buyurtmachiga Ijrochining Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishga har qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar to'g'risida, shuningdek ishlarni bajarishdan Buyurtmachi uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar to'g'risida xabar berish;

3.1.5. Agar biron bir sababga ko'ra buyurtmaga muvofiq Ishlarni bajarishning iloji bo'lmasa, bu haqda Tomonlar kelishgan muddatda darhol Buyurtmachiga xabar berish;

3.1.6. Ishlarni bajarish jarayonida Ijrochi Shartnoma shartlarini buzgan taqdirda yoki Buyurtmachining talablariga javob bermaydigan xizmatlar bajarilganda, Buyurtmachining talabiga ko'ra aniqlangan barcha kamchiliklarni bepul bartaraf etish.

3.2. Ijrochi quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Buyurtmachining roziligi bilan Ishlarni bajarish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish. Bunda majburiyatlarning uchinchi shaxslar tomonidan bajarilishi Ijrochini mazkur Shartnoma shartlarining bajarilishi bilan bog'liq javobgarlikdan ozod qilmaydi.

3.3. Buyurtmachi majburiyatlari:

3.3.1. Ijrochi bilan Ishlarni bajarish muddatlarini kelishish va tasdiqlash;

3.3.2. Xizmatlar bahosi bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish.

3.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. Shartnoma shartlariga muvofiq o'z vaqtida va sifatli xizmat ko'rsatilishini talab qilish;

3.4.2. Ijrochini kamida bir oy oldin xabardor qilish orqali uning xizmatidan voz kechish va Shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

3.4.3. Ishlar bajarilishining borishi to'g'risida Ijrochidan ma'lumot olish;

3.4.4. Shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda Shartnomani bekor qilish.

#### **4. TOMONLAR JAVOBGARLIGI**

4.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.2. Ijrochi tomonidan Shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan va/yoki Ijrochi tomonidan Ishlar lozim darajada bajarilmagan taqdirda, Ijrochi kechiktirilgan har bir kun uchun Ishlar umumiy bahosining 0,01 foizi hisobidan, biroq Ishlar umumiy bahosining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

4.3. Ijrochining bajargan Ishlari uchun to'lovlarni amalga oshirish muddati buzilgan taqdirda, Buyurtmachi to'lovning kechiktirilgan har bir kuni uchun to'lanmagan summaning 0,01 foizi miqdorida, biroq Ishlar bahosining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

4.4. Jarimani to'lash Tomonlarni Shartnoma yuzasidan o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

4.5. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar, agar ular muzokaralar yo'li bilan hal etilmagan bo'lsa, Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

#### **5. FORS-MAJOR HOLATLARI**

5.1. Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan, Tomonlar, agar bu favqulodda vaziyatlar oqibatida yuzaga kelganligini isbotlasalar, ozod qilinadilar.

5.2. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, Shartnomaning amal qilish muddati ushbu favqulodda vaziyatlarning davomiyligiga qarab tegishli davrga uzaytiriladi.



## 6. SHARTNOMA MUDDATI

6.1. Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yilning 31-dekabr amal qiladi.

## 7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Tomonlar ushbu Shartnomaning shartlarini to'g'ri bajarish uchun va amaldagi qonunchilikka muvofiq, mazkur Shartnomada, uning ilovalari va hisob-fakturalarda keltirilgan o'z shaxsiy ma'lumotlarining qayta ishlanishi, tarqatilishi va ulardan foydalanilishiga o'zlarining roziliklarini berdilar.

7.2. Tomonlarning shaxsiy ma'lumotlaridan uchinchi shaxslarning foydalanishiga faqatgina amaldagi qonunchilikda aniq belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi.

7.3. Shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi, bunda Buyurtmachi Ishlar bahosini to'liq to'lagandan so'ng, uning majburiyatlari to'liq bajarilgan hisoblanadi, shuningdek Ijrochi Buyurtmachining buyurtmasi (buyurtmalari) asosida Ishlarni to'liq bajargan taqdirda, uning majburiyatlari to'liq bajarilgan hisoblanadi.

7.4. Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtiriladi, Tomonlar tomonidan imzolanadi va Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

7.5. Shartnoma Tomonlarning kelishuvi bilan, shuningdek Shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda bekor qilinishi mumkin.

7.6. Shartnomada ko'zda tutilmagan barcha holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga tayanadilar.

7.7. Mazkur Shartnoma 2 asl nusxada o'zbek tilida tuzildi va Tomonlarning har birida bir nusxadan saqlanadi.

### Tomonlar rekvizitlari, manzili va imzolari:

#### Ijrochi:

Turizm va sport vazirligi qoshidagi "Turistlarga xizmat ko'rsatish markazi" DUK  
Toshkent sh. Oybek-18  
H/r. 2021 0000 4006 0029 0001  
«KAPITALBANK» ATB Amaliyot boshqarmasi  
MFO: 00974;  
OKED 79120; STIR 200 524 616  
Tel: (+998 95) 170 30 35  
E-mail: [konkurs@turizm82@mail.ru](mailto:konkurs@turizm82@mail.ru)

Director

D.T.Nurov



#### Buyurtmachi:

|   |
|---|
| O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi      |
| Manzil: 100084, A. Temur ko'chasi 107-B uy              |
| Sh/hv: 3041108602626670877904248001                     |
| STIR: 200 523 578 OKI                                   |
| O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi               |
| H/r: 2340 2000 3001 0000 101                            |
| Bank: O'zRes Markaziy bankining Toshkent shahar filiali |
| MFO: 00014 STIR: 201 122 919                            |



Uspuri Koriyobov H.

**«Turistlarga xizmat ko'rsatish markazi» DUK avtotransportlarida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha narxlar spetsifikatsiyasi**

| №                         | Nomlanishi   | Mikroavtobus «TOYOTA HIACE»<br>12 ta yo'lovchi o'rindiqli |             |                    |                                 |
|---------------------------|--|---|-------------|--------------------|---------------------------------|
|                           |  | O'lovch birligi   | Narx (so'm) | Umumiy narx (so'm) | Umumiy narx QQS15% bilan (so'm) |
| 1                         | Aeroport va Temir yo'l vokzalidan kutib olish va kuzatish  | 15 kunlik   | 400000      | 6000000            | 6900000                         |
| 2                         | Respublika bo'ylab, Toshkent shahar va viloyatlararo bo'ylab xizmat safariga chiqish (1 km. uchun) | 750 km. uchun   | 3000        | 2250000            | 2587500                         |
| 3                         | Toshkent shahar va viloyatlararo bo'ylab (1 kun, 8 soat uchun)                                     | 12.5 kun  | 1050000     | 13125000           | 15093750                        |
| 4                         | Har bir qo'shimch ish soati uchun (8 soatdan ortiq vaqt uchun har soatiga)                         | 15 soat   | 148000      | 2220000            | 2553000                         |
| <b>CHEVROLET COBALT</b>   |  |   |             |                    |                                 |
| 5                         | Aeroport va Temir yo'l vokzalidan kutib olish va kuzatish  | 15 kunlik   | 100000      | 1500000            | 1725000                         |
| 6                         | Respublika bo'ylab, Toshkent shahar va viloyatlararo bo'ylab xizmat safariga chiqish (1 km. uchun) | 750 km. uchun   | 2170        | 1627500            | 1871625                         |
| 7                         | Toshkent shahar va viloyatlararo bo'ylab (1 kun, 8 soat uchun)                                     | 15 kun  | 850000      | 12750000           | 14662500                        |
| 8                         | Har bir qo'shimch ish soati uchun (8 soatdan ortiq vaqt uchun har soatiga)                         | 15 soat   | 120000      | 1800000            | 2070000                         |
| <b>CHEVROLET MALIBU-2</b> |  |   |             |                    |                                 |
| 9                         | Aeroport va Temir yo'l vokzalidan kutib olish va kuzatish  | 15 kunlik   | 162000      | 2430000            | 2794500                         |
| 10                        | Respublika bo'ylab, Toshkent shahar va viloyatlararo bo'ylab xizmat safariga chiqish (1 km. uchun) | 750 km. uchun   | 3000        | 2250000            | 2587500                         |
| 11                        | Toshkent shahar va viloyatlararo bo'ylab (1 kun, 8 soat uchun)                                     | 12.5 kun  | 1300000     | 16250000           | 18687500                        |
| 12                        | Har bir qo'shimch ish soati uchun (8 soatdan ortiq vaqt uchun har soatiga)                         | 15 soat   | 170000      | 2550000            | 2932500                         |
| <b>JAMI:</b>              |  |   |             |                    | <b>74 465 375</b>               |



«KELISHILDI»

Turizm va sport vazirligi

*[Handwritten signature]*

«TASDIQLANDI»

«Turistlarga xizmat ko'rsatish makazi» DUK

Direktori

